



THE LETTER MOTIVE IN NAVOI'S WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE EPISTLE "FARKHOD AND SHIRIN")

Boltayeva Iroda

2nd year student of the Uzbek language and literature department of
the Faculty of Turkic Languages of the Nukus State Pedagogical
Institute named after Ajinyoz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15181354>

ARTICLE INFO

Received: 02nd April 2025

Accepted: 08th April 2025

Online: 09th April 2025

KEYWORDS

Letter, artistic depiction,
character psychology, plot
development, Salosil
Fortress, loyalty, epic poem
of sorrow, Saba, four castles.

ABSTRACT

In the work of Alisher Navoi, the letter motif is embodied not only as a means of communication, but also as an artistic detail reflecting the inner experiences and trials of fate of the heroes. In the epic poem "Farhod and Shirin", letters become a symbol of love, hope and suffering and play an important role in the development of the plot. Farhod and Shirin convey not only words to each other, but also a heartfelt cry through letters. Letters influence the development of events and serve to reveal the mental state of the heroes. Navoi describes the letter not just as correspondence, but as a poetic expression of love and trials of fate. This article analyzes the role of the letter motif in the plot of the epic poem and its artistic interpretation.

NAVOIY ASARLARIDA XAT MOTIVI ("FARHOD VA SHIRIN" DOSTONI MISOLIDA)

Boltayeva Iroda

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15181354>

ARTICLE INFO

Received: 02nd April 2025

Accepted: 08th April 2025

Online: 09th April 2025

KEYWORDS

Maktub, badiiy tasvir,
qahramonlar ruhiyati, syujet
rivoji, Salosil qo'rg'oni,
sadoqat, g'am dostoni, sabo,
to'rt qasr.

ABSTRACT

Alisher Navoiy ijodida xat motivi nafaqat muloqot vositasi, balki qahramonlarning ichki kechinmalari va taqdir sinovlarini aks ettiruvchi badiiy detal sifatida gavdalanadi. "Farhod va Shirin" dostonida xatlar sevgi, umid va iztirob timsoliga aylanib, syujet rivojida muhim rol o'ynaydi. Farhod va Shirin maktublar orqali bir-birlariga nafaqat so'z, balki yurak nidosini ham yetkazadilar. Xatlar voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatib, qahramonlarning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi. Navoiy xatni shunchaki yozishma emas, balki sevgi va taqdir sinovlarining poetik ifodasi sifatida tasvirlaydi. Mazkur maqolada doston syujetida xat motivining o'rni va uning badiiy talqini tahlil qilinadi.

Navoiygacha "Xusrav va Shirin" deya atalib kelinayotgan Xamsaning ikkinchi dostoni Alisher Navoi qalamida "Farhod va Shirin" deb atalgan. Navoiy Xusravni komil inson siymosida ko'ra olmaydi, ya'ni, loyiq deb bilmaydi. Doston mavzusi ishqiy-sarguzasht



dostonidir. Navoiy ushbu dostonni “Mehnatnoma” hamda “Shavq dostoni” nomlari bilan ham atagan. Shirin obrazini eng birinchi bo‘lib Firdavsiy “Shohnoma” siga kiritgan bo‘lsa, Farhod obrazini ilk bora Navoiy dostonida uchratamiz. Doston voqealari asosan Chin va Armanistonda kechadi. Asar boshlanish syujeti “Alpomish” dostonida uchratishimiz mumkin bo‘lgan farzandsizlik mativi bilan boshlanadi. Mamlakat podshosi farzandli bo‘lgach elni uch yil soliq to‘lashdan ozod qilinadi. Xoqon farzandining ismi yuqorida ta’kidlanganidek, Farhod bo‘ladi.

Asarda Farhodning do‘sti Shopur Mehinbonu va Shiringa Farhodni izlab ketayotgani hamda xat yozib bersa unga yetkazishini aytganidan so‘ng Shirinning o‘z sevgilisiga yozgan xatini olib yo‘lga tushadi. Oshiq shahzodani topgandan keyin maktubni beradi. Shirinning maktubida Farhodga bo‘lgan ehtirosli muhabbati, cheksiz sadoqati, chekayotgan alam-u iztiroblari, orzu-yu tilaklari misralarga jo qilingan edi.

Nedur ahvoling, ey zori g‘aribim,
Visolim davlatidin benasibim?
Chekardim g‘am tag‘in holing nechuktur,
Bu yukdin jismi chun noling nechuktur?

Qatig‘ g‘urbat aro holing ne erkin,
Achiq furqatda ahvoling ne erkin?
Firoq ichra nechuktur jismi zoring,
Ne yanglig‘ to‘lg‘onur o‘t ichra toring?¹

Bu maktub juda ta‘sirli va hasratga to‘la. U ma‘shuq visoliga yetolmay iztirob chekayotgan Shirinning dardini ifodalamoqda. G‘am, g‘urbat va firoqning og‘ir yukidan nolish orqali oshiqning iztirobi kuchaytirib tasvirlangan. Jumladan: “Nedur ahvoling, ey zori g‘aribim” – Oshiq sevgilisi Farhodga murojaat qilib, uning ahvolidan xabar olmoqchi. “Visolim davlatidin benasibim?” – U o‘zining visol baxtidan bebahra ekanini izhor qilmoqda. “Bu yukdin jismi chun noling nechuktur?” – Dard va g‘amning og‘irligi badaniga qanday ta‘sir qilayotganini so‘rayapti.

Xatning davomida ham “qatig‘ g‘urbat”, “achiq furqat”, “firoq ichra jismi zor”, “o‘t ichra tor” kabi tashbehtar orqali dard va iztirob ifodalangan. Uslubiy jihatdan esa ohangdorlik va lirik iztirob kuchli seziladi. Shirin yana maktubida Bilqisdek yori bo‘lolmasa ham, kanizi bo‘lishga tayyor ekanini aytib o‘tadi. Maktubni o‘qib chiqqan Farhod fig‘on chekardi. Sabrsizlik bilan u ham Shiringa bir maktub yozib tugatib Shopurga beradi. Uning maktubi shunday edi:

Nigoro, mohvasho, iffat panoho,
Sanga haddim yo‘q o‘lmoq nukta pardoz,
Tilarmen itlaringg‘a aytmoq roz.
Nedir kuyung aro itlarga holat,
Farog‘at birladurlar yo malohat,
Kecha ul ko‘y aro qilg‘onda faryod,
Qilurlarmi bu itgan itni ham yod,²

¹ “Farhod va Shirin” dostoni 178-179-bet



Bu oddiy maktub emas, g'am va chuqur iztirobi, muhabbatdagi sadoqati va dardli nolasi ifodalangan. Endi har bir satrni izohlaymiz:

1. **“Nigoro, mohvasho, iffat panoho”** Ey mahbuba, nigor (go'zal), mohvash (oydek jamol sohibasi), iffat va hayo panohi bo'lgan pokiza ayol, (Farhod Shirinni nafaqat go'zalligi, balki ma'naviy pokligi bilan ham ulug'lamoqda. Unga hurmat va muhabbat bilan murojaat qilmoqda.) 2. **“Sanga haddim yo'q o'lmoq nukta pardoz”** Senga o'lim tilab nolish (ya'ni, o'lmoq istagini chiroyli so'zlarda izhor qilish) mening haddim emas, (Farhod bu yerda o'zining umidsizligini bildirib, hatto o'z dardini so'z bilan ifoda etishga o'zini munosib ko'rmaydi. “Nukta pardoz” (so'zgo'y) bo'lishdan or qiladi.) 3. **“Tilarmen itlaringg'a aytmoq roz.”** Faqat tildan kelgani – itlaringga (ya'ni, xizmatkorlaring, yovuz kimsalar) dardimni yetkazishdir, (U bu yerda Shirin atrofida to'siq bo'layotgan kishilarni “it” deb atab, ya'ni Xisravni.) 4. **“Nedir kuyung aro itlarga holat”** Ammo sening saroying atrofida bu “itlar” dardimni tushunadimi? (U shubha bilan so'raydi: bu atrofdagilar mening holatimni anglay oladimi, yoki yuragimdagi olovni his qila oladimi?) 5. **“Farog'at birladurlar yo malohat”** Ular faqat huzur-halovat va go'zallik bilan mashg'ul. Bu yerda Farhod ularni dunyoviy naf va ko'rinishga aldanib yashayotgan, nozik qalb sezgisidan yiroq insonlar sifatida tasvirlaydi. 6. **“Kecha ul ko'y aro qilg'onda faryod”** Kecha o'sha yurt atrofida faryod qilganimda, (Farhod kechagi ichki iztirobi, ehtimol Shirinni sog'ingan paytdagi nolasi haqida eslaydi.) “Ko'y aro” – u yashaydigan yoki yuradigan joylar atrofida degani. 7. **“Qilurlarmi bu itgan itni ham yod”** Ular bu faryod qilgan, sadoqatli “it”ni (ya'ni, men – Farhodni) yodga oladilarmi? So'nggi satrda Farhod o'zini ham itlarga qiyoslab, juda chuqur kamsitilgan holatda tasvirlaydi. Bu yerda “it” so'zi murtajoona emas, balki majoziy, ya'ni sadoqat va pastkashlik o'rtasidagi murakkab ichki ziddiyat sifatida ishlatilgan. Bundan keyin Farhod o'zining diyori, xalqi bor ekanini, Uning qo'lida taxt borligi haqida ham ma'lumot berib o'tish bilan birga, ota-onasi uni deb kuyib-yonib yurgani, ularni qanday ahvolga solib qo'rganini, dodu-faryodini kimga aytishini ilmayotganligi haqida ham aytib o'tadi va u yana bu maktubni hushi yo'qligida yozganini, mobodo xato so'zlar yozgan bo'lsa buning uchun kechirim so'raydi. Shu tariqa Shopur ikki sevishganning maktublarini bir-biriga yetkazib turadi. Xisrav bundan xabardor bo'lib qolganidan keyin ularning ti biriktirib qochib ketishlaridan qo'rqa boshlaydi. Yo'llarga josuslar qo'yib maktublar o'rin almashinishiga to'siq bo'ladi, Shopurni ham ushlab oladi. U yana vaziri Buzrugu umud maslahati bilan Farhodning yoniga odam o'ldirishni o'ziga savob deb biladigan bir qotli topishdi. Bundan tashqari xiylagar kampirni yollashdi. U Farhodga turli yolg'onlar to'qib aytadi. Jumladan, mamlakatni Parvez bosib olib, malikaga uylandi, biroq, uning Farhod ismli sevgilisi bor ekan u ayriliqqa chiday olmay o'z joniga jasd qildi mazmunidagi gaplarini eshitiboq oh faryod cheka boshlayi. Hamda barcha parranda-yu darrandalar bilan vidolashdi, ulardan bergan azoblari uchun kechirim so'radi, hamdardlik hamnafaslik qilganlari uchun minnatdorchilik bildirdi. Otasi-onasi-yu yaqinlarini yod etdi va jon beradi. Xusravning Farhodning o'limidan keyingi xursandchiligi uzoqqa cho'zilmaydi uning noqobil o'g'li Sheruya uni o'ldiradi. Farhodning o'limidan xabar topgan Shirin ham tarki dunyo qiladi.

² “Farhod va Shirin” dostoni 181-bet T-2022



Haqiqatan ham doston ishqdan bitilgan dostonligini Farhod va Shirinning bir biriga yo'llagan maktublaridan ham bilib olish mumkin. Xisrav qanchalik xiyla ishlatmasin u baribir maqsadiga erisha olmaydi. Dostonda xat nafaqat ikki sevishganning bir biriga bo'lgan ishqini, sadoqatini, sog'inchlarinigina emas, balki Farhodning qanchalar komil inson ekanini ham bildiradi. Ular maktub orqali suhbatlashib bir birilarining holidan xabardor bo'lib turdilar. O'ylaymanki, ularning sevgisi asrlar davomida kuylanib, xotirlanib yuraveradi. Chunki Navoiy umrboqiy asarlar sohibidir.

References:

1. "Farhod va Shirin" dostoni T-2022
2. 9-sinf adabiyot darsligi T-2014
3. Hamid Olimjon "Farhod va Shirin" (1934)
4. Nilufar Rasulova Alisher Navoiy (XV asr)
5. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/download/12460/8842>